



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА
ИННОВАТЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ

(энг қадимги замонлардан ҳозиргача)
мавзусидаги халқаро миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

2023 йил–10 июнь

Бухоро - 2023

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАТЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ
(энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

мавзусидаги халқаро миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛАРИ

2023 йил – 10 июнь

Бухоро - 2023

~ 2 ~

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шаҳарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилаётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғлиқлигини кучайтириш мақсадида Бухоро давлат университетида **2023 йил 10 июнь** куни **“БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ” (ЭНГ ҚАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ҲОЗИРГИ ДАВРГАЧА)** мавзусидаги халқаро микёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

Ушбу тўплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан қизиқувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мўлжалланган

Масъул муҳаррир:

БухДУ профессори, тарих фанлари доктори

Ҳ.Ҳ.Тўраев

Таҳрир хайъати ва аъзолари:

Бухоро давлат университети ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор	О.Х.Ҳамидов
Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, физ-мат ф.д (DSc), проф	Т.Ҳ.Расулов
Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири	Ф.У.Темиров
Бухоро давлат университети профессори, тарих фанлари доктори	И.С.Иноятов
Бухоро давлат университети профессори, тарих фанлари доктори	Ш.А.Ҳайитов
тарих фанлари номзоди, доцент	М.Б.Қурбонова
тарих фанлари номзоди, доцент	М.И.Ниязова
тарих фанлари номзоди, доцент	Ф.Ҳ.Бобожонова
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)	И.Н.Наимов
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)	А.Ҳ.Болтаев
Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси	О.И.Ражабов
Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси	Ш.Ў.Носиров

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:

Темиров Ф.У. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири
Умаров Б.Б. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси
Носиров Ш.Ў– Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Мазкур тўплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2023 йил 15 майдаги
7 – сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган.

*Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар,
маълумотлар, чиқарилган хулосалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг
ўзлари масъул ва жавобгар*

joyyig'di, kelinsalom, dommotsalom), ayrim xonadonlar tomonidan ularning barchasi dabdabali restoranlarda o'tkazilmoqda. Shuningdek, voha nikoh to'yi marosimlarini ishtirokchilar jinsiga ko'ra guruhlashda aniq belgilangan qonun-qoida mavjud emas, ya'ni ayrim xonadonlarda ayollar marosimida faqat ayollar ishtirok etishsa, boshqalarida ushbu marosimlarda kelin-kuyovning yaqin erkak qarindoshlari ham tashrif buyurishadi.

XX ASRNING 20-30 YILLARIDA BUXORODA XALQ MAORIFI TIZIMI

Murodova Dilrabo Shomurodovna
Buxoro Davlat Universiteti tayanch doktoranti

XX asrning birinchi yarmida O'zbekistonda xalq ta'limi maktablari soni jadal suratda oshib borib, 1924-25 o'quv yilida respublikada 160 ta sovet tipidagi ta'lim muassasalari tashkil qilingan va ularda 17209 nafar o'quvchi ta'lim olgan¹¹⁵⁷. Bu davrda esa Buxorodagi ta'lim muassasalarining asosiy qismini I darajali maktablar tashkil etgan bo'lib, dastlab 1924-1925 yillarda jami 29 ta, Eski Buxoro shahrida esa 19 ta shunday maktablar faoliyat yuritgan¹³³⁷.

Mazkur davrda okrugdagi ta'lim-tarbiya jarayoniga ma'sul bo'lgan barcha ta'lim muassasalari Zarafshon viloyati ishchi, dehqon va qizil armiya deputatlari kengashi ijroiya qo'mitasi xalq ta'limi bo'limi tasarrufida bo'lib, dastlab Zarafshon viloyati Xalq ta'limi boshqarmasining tumanlashtirish natijalariga ko'ra uning tarkibiga: Buxoro, Qorako'l, Bahovuddin, G'ijduvon, Vobkent, Karmana, Xatirchi, Mirbozor, Nurota kiritilgan¹¹⁵⁸¹¹⁵⁹. Boshqarmaning markazi esa Eski Buxoro shahrida bo'lib, xududdagi yangi tashkil etilgan barcha ta'lim muassasalari boshqarma tomonidan nazorat qilingan.

1926 yil 1 may holatida esa Zarafshon viloyatida¹³³⁹ 148 ta I darajali maktablarda jami 4693 nafar o'quvchilar ta'lim olgan.¹³⁴⁰ Shundan bir sinfli maktablar – 101 ta, ikki sinfli – 21 ta, uch sinfli – 20 ta, to't sinfli maktablar esa – 6 tani tashkil etgan. Shu o'quv yilida xudud bo'yicha I darajali maktablarning 4693 nafar o'quvchisidan 3038 nafari umumiy hisobda 64,7% o'quvchi sinfdan sinfga muvaffaqiyatli o'tib maktabni tugatgan. 1655 nafar (35,3%) o'quvchilar esa turli sabalarga ko'ra o'quv dasturlarini o'zlashtirolmaganligi uchun sinfda qoldirilgan¹¹⁶⁰. 1926-1928 yillarda Buxoro shahri aholisi uchun jami 21 ta birinchi darajali maktablar faoliyat yuritgan bo'lib, shundan 12 tasi o'zbek maktablari (57%), 3 ta tojik maktabi (14%), 5 ta yahudiylar maktabi (24%), 1 ta eron-ozarbayjon maktabi (5%) mavjud

¹¹⁵⁷ Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. –Тошкент: “Шарк”, 2000. 387-бет. ¹³³⁷ Buxoro viloyat davlat arxivi. 43-fond, 1-ro'yxat, 121-yig'majild, 10-varaq.

¹¹⁵⁸ O'zMA, P-94- fond, 1-ro'yxat, 91-yig'majild, 59-varaq.

¹¹⁵⁹ yil 1 oktabrda Butunbuxoro MIK qarori bilan BSSRda ma'muriy –xududiy bo'linish qayta o'tkazilib, viloyatlar o'rnida 5 ta okrug: Zarafshon, Qashqaryo, Surxondaryo, Turkman (Amudaryo) va Sharqiy Buxoro okruglariga asos solindi. Zarafshon okrugi tarkibida 3 ta viloyat: Buxoro, Karmana, Nurota viloyatlari tuzilib, ular tarkibida 8 ta tuman tashkil etildi. Batafsil qarang / Қ.Ражабов, Б.Қандов, С.Ражабова. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари. - Тошкент: “O'zbekiston”, 2015.173- бет. ¹³⁴⁰ O'zMA, P-94- fond, 1-ro'yxat, 91-yig'majild, 10-varaq.

¹¹⁶⁰ O'zMA, P-94- fond, 1-ro'yxat, 91-yig'majild, 11-varaq.

bo`lgan¹¹⁶¹. 148 ta maktabdan 49 tasida pionerlar faoliyat yuritmayotganligi qayd etilgan¹³⁴³.
Maktablar

168 ta binoda, aniqrog'i 1 ta xususiy, 9 ta davlat va 158 tasi ijara joylarida joylashgan. 1925 yil

13 fevralda Xalq maorifi Komissarligiga qishloq ovullarida maktab qurilishi uchun 125.000 rubl ajratiladi¹¹⁶². 1 ta namunaviy maktab uchun 20.736 rubl sarflanishi belgilanadi. Respublika bo`yicha belgilan ro`yxatda Zarafshon viloyatida 1 ta maktab uchun 12.500 rubl ajratilgan bo`lib, bu ta`lim maskani uchun Vobkent tumanidagi qishloq tanlangan¹¹⁶³.

1926-1927 o`quv yilida viloyat xududidagi tuman qishloqlarida 12 ta maktab qurilishi rejalashtirilgan bo`lib, ular asosan 2 va 3 sinfli ta`lim maskanlari ekanligi qayd etilgan¹¹⁶⁴. Vaqf boshqarmasi tomonidan qurulish rejasi uchun viloyat xalq ta`limi boshqarmasiga 145.466 rubl summa ajratilgan¹¹⁶⁵. Xalq maorifi Komissarligi xodimi Mustafoyev shu masalada unga berilgan topshiriq bo`yicha Vaqf bosh boshqarmasiga boradi va natijada boshqarma tomonidan xududda yangi maktablar qurish uchun kerakli mablag`lar ajratilishiga kelishiladi. Unga ko`ra Buxoro shahridagi maktablar qurilishi uchun 86.251 rubl, G`ijduvon uyezdi uchun esa 32.204 rubl mablag` ajratiladi¹¹⁶⁶.

Tadqiq qilinayotgan davr mobaynida viloyatda jami 3ta II darajali maktablar mavjud bo`lib, Kogon shahridagi yahudiylar maktabi va qolgan ikkitasi esa Buxoro shahrida foliyat yuritgan ta`lim muassasalaridir. Bundan tashqari mintaqada dehqon yoshlari maktablari ham faoliyat yuritganligidan hujjatlar guvohlik beradi¹¹⁶⁷.

1926 yil 25 aprelda Toshkentda I darajali qishloq maktablarning o`qituvchilari uchun konferensiya bo`lib o`tadi¹³⁵⁰. Konferensiyada shu yilning 15 mayidan 10 iyunigacha Toshkentda 415 nafar pedagog kadrlar uchun tayyorlov kurslari tashkil etilishi belgilanadi. Tayyorlov kurslarida o`qish uchun Samarqanddan 100 nafar, Qo`qondan 150 ta, Buxorodan 80 ta, Xivadan 55 kishi uchun joy so`ralgan. Zarafshon viloyati uchun jami 100 nafar kadrlarni tayyorlashga ehtiyoj borligi ta`kidlanadi¹¹⁶⁸. Ishtirokchilarning 10% ni mayda millat vakillaridan bo`lgan o`qituvchilar tashkil etishi zarurligi belgilanadi. Xududda istiqomat qilayotgan barcha millatlar qatorida yahudiylar madaniy muhitini yuksaltirish va savodxonlik darajasini ko`tarish maqsadida tavsiya etilayotgan nomzodlar orasida buxoro yahudiylariga tayyorlov guruhlarida ta`lim olishlari uchun imkon berildi. 1926 yil 16 avgustda Zarafshon viloyati hay`ati yig`ilishining 19-sonli bayonnomasida qayd etilgandek, jarayonga ma`sul bo`lgan Mastovning "Respublika Maorif Xalq Komissarligi tomonidan yuborilgan o`qituvchilar to`g`risida"gi bayonotini eshitib, shunday qaror qabul qilinadi: "5

¹¹⁶¹ Buxoro viloyat davlat arxivi. 37-fond, 1-ro`yxat, 42-yig`majild,31-varaq. ¹³⁴³ O`zMA, P-94- fond, 1-ro`yxat, 91-yig`majild, 15-varaq.

¹¹⁶² O`zMA, P-94- fond, 1-ro`yxat, 69-yig`majild, 37-varaq.

¹¹⁶³ O`zMA, P-94- fond, 1-ro`yxat, 69-yig`majild, 44-varaq.

¹¹⁶⁴ O`zMA, P-94- fond, 1-ro`yxat, 51-yig`majild, 217-varaq.

¹¹⁶⁵ O`zMA, P-94- fond, 1-ro`yxat, 91-yig`majild, 18-varaq.

¹¹⁶⁶ O`zMA, P-94- fond, 1-ro`yxat, 644-yig`majild, 11-varaq.

¹¹⁶⁷ O`zMA, P-94- fond, 1-ro`yxat, 91-yig`majild,14-varaq. ¹³⁵⁰ O`zMA, P-94- fond, 1-ro`yxat, 85-yig`majild,92-varaq.

¹¹⁶⁸ O`zMA, P-94- fond, 1-ro`yxat, 85-yig`majild, 93-varaq.

nafar yahudiy o'qituvchisi Maorif xalq komissarligi tomonidan 1926 yil 10 avgustdan o'quv kurslarida o'qish uchun qabul qilinadi¹¹⁶⁹”.

1929 yil 1 iyundan Toshkentda O'zbek Inprosda asosan qozoq, qirg'iz va yahudiy maktablari uchun o'qituvchilarni qayta tayyorlash kurslari tashkil qilinadi. Mahalliy yahudiylar uchun esa tayyorlov kurslari Arrapolsk ko'chasidagi binoda tashkil etilib, Buxorodagi tayanch maktablardan – 9 ta, tojik maktablari uchun – 10 ta, yahudiy maktablari uchun – 7 ta, qirg'izlar uchun – 3 nafar nomzodlar o'qishga qabul qilinadi. 1928 yil 1 oktabr holatida viloyatda mavjud 144 ta birinchi darajali maktablarlarning 117 tasida o'zbeklar, 13 tasida fors-tojiklar, 1 tasida arablar, 4 ta maktabda mahalliy yahudiylar, 1 tasida qozoqlar, 2 tasida ozarbayjonlar va 6 ta maktabda esa rus-tatarlar ta'lim olishgan¹¹⁷⁰. Bundan tashqari 1929 yilda Toshkentdagi mahalliy yahudiylar pedagogika texnikumida o'qish uchun Buxorodan 5 nafar nomzod so'ralganligi haqidagi maktubda ham yahudiylarga XX asr boshida berilgan imkoniyatlar haqidagi tarixiy ma'lumotlar aks ettirilgan¹¹⁷¹.

1929-1930 yillarda Buxoro shahrida: Karvon boshi ko'chasida 1-darajali qishloq xo'jalik

Kommunasiga qarashli maktab, Korxonaga guzarida 1-darajali “Turon” maktabi, Chor xarogda ozarbayjonlar uchun maktab, Qirg'iz - Oyimda “Saodat” maktabi, Fazlitdin – Maxsumda

“Kim” maktabi, Shayx – Shada “Namuna” maktabi, Eski mahallada “Lunacharskiy” maktabi, Mahallayi Navda “Roza Lyuksemburg”, “Frunze”, “Ro'shnoi”, Chashmayi Ayubda “Ikramova”, Mehtar Ambarda “Zhuriya” maktabi, Sharifjon guzarida “F.Xo'jayev” nomidagi maktab, Xonaqo – Jo'yborda “Najot” maktabi, Samarqand ko'chasida turk – tatar maktabi, Xolid Xo'ja guzarida 1 - ayollar maktabi, Po'stun Do'zon guzarida 2 – ayollar maktabi,

Porso Xo'ja guzarida 3 – ayollar maktabi, Shox Zangir guzarida 5 – ayollar maktabi, Murtazo Xo'ja guzarida 6 – ayollar maktabi, Xonaqo – Jo'yborda 7 – ayollar maktabi kabilar faoliyat yuritgan. Viloyat bo'yicha 1926-1927 o'quv yilida 5 ta internat mavjud bo'lib, ularda jami 216 nafar bolalar ta'lim va tarbiya olishgan. Eski Buxoroda 2 ta, Kogon shahrida 1 ta, Karmanada 1 ta, G'ijduvon shahrida 1 ta. Buxoro va Karmanadagi internatlar davlat byudjeti, Kogon va G'ijduvondagi muassasalar esa mahalliy byudjet hisobidan faoliyat yuritgan. Internatlardagi ta'lim jarayonlari I darajali maktablar o'quv dasturi asosida olib borilgan¹³⁵⁵.

Tadqiq qilingan davr hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, XX asrning 20-30 yillarida yangi tashkil qilinayotgan sovet maktablaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni qisqa vaqt ichida butunlay hukmron mafkura izmiga bo'ysundirilib, an'anaviy madrasa ta'limiga chek qo'yildi. Xalqimiz uzoq asrlik an'analari, turmush tarzi, moddiy ahvoli inobatga olinmay, umumiy ta'limni joriy qilishda jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yildi.

¹¹⁶⁹ Buxoro viloyat davlat arxivi. 546-fond, 1-ro'yxat, 52-yig'majild,9-varaq.

¹¹⁷⁰ Buxoro viloyat davlat arxivi. 43-fond, 1-ro'yxat, 121-yig'majild,4-varaq.

¹¹⁷¹ Buxoro viloyat davlat arxivi. 43-fond, 1-ro'yxat, 169-yig'majild,112-varaq. ¹³⁵⁵ O'zMA, P-94- fond, 1-ro'yxat, 91-yig'majild,14-varaq.

Рахмонов Камол Жамолович	ДЎСТОНА ВА ЯХШИ КЎШНИЧИЛИК АЛОҚАЛАРИ: МАНБАЛАР ТИЛГА КИРГАНДА	658
А.А. Кабыл М.У. Турадилов	ОТКОЧЕВКА КАЗАХОВ В УЗБЕКИСТАН (1920 – 1930 ГГ.) КАК ПОСЛЕДСТВИЕ СОВЕТСКОЙ РЕПРЕССИВНОЙ ПОЛИТИКИ В КАЗАХСТАНЕ	660
Баҳром Ирзаев	НИЁЗ РАЖАБЗОДА	665
Utayeva Feruza Xolmamatovna Muxamedjonova Marjona Azamatjon qizi	YENGIL SANOAT TARMOQLARIDA YANGI ISH O'RINLARINING TASHKIL ETILISHI	670
Абдишукуров Бобомурод Фахриддин ўғли	БУХОРО РЕСПУБЛИКАСИ ПРОКУРАТУРАСИ ТАРИХИДАН АЙРИМ ЛАВХАЛАР (XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ)	672
Utayeva Feruza Xolmamatovna Bahodirova Mohlaroyim	БУХОРО ИР-ЙИГИРУВ ФАБРИКАСИДАГИ SHART- SHAROITLAR	675
Абдуллаева Дилфуза	СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЙИЛЛАРИДА БУХОРО МЕЪМОРИЙ ОБИДАЛАРИГА БЎЛГАН МУНОСАБАТ	677
M.B.Siddiqov	РАНИМА ALIMOVA — FELDSHER, INSTRUKTOR VA HAMSHIRA	680
Шамсиева З.А	БУХОРО VOHASI НИКОН ТО'ҲИ МАРОСИМЛАРИ ТАСНИФИ ХУСУСИДА	682
Murodova Dilrabo	XX ASRNING 20-30 YILLARIDA BUXORODA XALQ MAORIFI TIZIMI	685
Davlatova Shoiria	SOVET HOKIMIYATINING B XSR XALQ TA'LIMI SOHASIGA OID DASTLABKI HUIJATLARI	688
Шотемирова Азиза Усаровна	ФАЙЗУЛЛА ХЎЖАЕВ ТОМОНИДАН СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЙИЛЛАРИДАГИ ЎзССР ДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН АГРАР СИЁСАТИ	691
Hayitov Sh.A. Artikov Z.Z.	TURKISTON ASSRDAGI QOCHOQLAR VA B XSR FUQAROLARINING EVAKUATSIYA QILINISHI TARIXIGA DOIR (ARXIV HUIJATLARI ASOSIDA)	694
Sharipov Rustam	XX ASRNING 40-50 YILLARIDA BUXORO SAN'AT MAKTABI FAOLIYATI	697
Жўраев Шерали	БУХОРО МУЗЕЙИ АРХЕОЛОГИК КОЛЛЕКЦИЯСИНИНГ ЯРАЛИШИ	699
Мухторзода Киромиддин Тоҷиддин	АМАЛИШАВИИ НИЗОМИ СЕГОНАИ ҲУҚУҚИ ДАР ДАВЛАТДОРИИ БУХОРО	701
Очилова Гулмира Мардоновна	XX АСР БОШИДА БУХОРО МАТБУОТИ (“БУХОРОИ ШАРИФ” ВА “ТУРОН” ГАЗЕТАЛАРИ МИСОЛИДА)	705
Шодмон Воъидов Гулнари Шарифова	РЕМЕСЛА И РЕМЕСЛЕННИКИ БУХАРЫ В «ВОСПОМИНАНИЯХ» САДРИДДИНА АЙНИ	708
Пардаев Асрор	ЎРТА ОСИЁ РЕСПУБЛИКАЛАРИ ИҚТИСОДИЙ КОНФЕРЕНЦИЯЛАРИНИНГ МАНБАЛАРДА ЁРИТИЛИШИ	717
Мавлуда Абдусаматовна Рахмонова	ФИТРАТ САФДОШИ, М. МАХСУМОВ ИЗДОШИ	721
Мавлуда Эркин кизи Рахманова	СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ТОМОНИДАН БУХОРО ВИЛОЯТИГА МАЖБУРАН КЎЧИРИЛГАН ХАЛҚЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ, ИҚТИСОДИЙ ВА ХЎЖАЛИК ҲАЁТИ МАСАЛАСИ (1937-1953 йй.)	727
Шохжаҳон Рашидов	БУХОРО САРЧАШМАЛАРИДАН ҚУВВАТ ОЛИБ...	731
Турсун Хазретали Батырбеккызы Гаухар	НАЗИР ТОРЕКУЛОВ – ОРГАНИЗАТОР НАЦИОНАЛЬНОГО ИЗДАТЕЛЬСКОГО ДЕЛА ТЮРКСКИХ НАРОДОВ СОВЕТСКОГО ОБРАЗЦА	736